

O'ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK FRAZELOGIYANING CHOG'ISHTIRMA-QIYOSIY TAHLILI

Avazberdiyeva Bahora Alijon qizi

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21835854>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi tana a'zolari nomlari (bosh, ko'z, qo'l, yurak va b.) ishtirok etgan iboralar o'zaro solishtirib o'rganilgan. Ishda ikki tilga tegishli iboralarining o'xshash va farqli jihatlari sodda misollar orqali ko'rsatib berilgan. Shuningdek, somatik iboralarining ma'no turlari tahlil qilinib, ularni bir tildan ikkinchi dilga tarjima qilish usullari yoritilgan. Maqola til o'rganuvchilar va tarjimonlar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: somatik iboralar, frazeologiya, o'xshash jihatlar, farqli jihatlar, tarjima usullari, tana a'zolari, o'zbek tili, ingliz tili.

Abstract: This article studies idioms containing body parts (head, eye, hand, heart, etc.) in the Uzbek and English languages in a comparative way. The study highlights the similarities and differences between the idioms of both languages using simple examples. In addition, the meanings of somatic idioms are analyzed, and methods for translating them from one language to another are explained. The article serves as a useful resource for language learners and translators.

Keywords: somatic idioms, phraseology, similarities, differences, translation methods, body parts, Uzbek language, English language.

Аннотация: В данной статье сравниваются фразеологизмы с названиями частей тела (голова, глаз, рука, сердце и др.) в узбекском и английском языках. На простых примерах показаны сходства и различия соматических идиом двух языков. Также проанализированы значения таких фразеологизмов и объяснены основные способы их перевода. Статья будет полезна для изучающих языки и переводчиков.

Ключевые слова: соматические фразеологизмы, фразеология, сходства, различия, способы перевода, части тела, узбекский язык, английский язык.

Turli tizimli tillarni chog'ishtirma-qiyosiy o'rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Turkiy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tili hamda hind-yevropa tillari oilasiga kiruvchi ingliz tili grammatik, leksik va strukturaviy jihatdan tubdan farq qiladi. Biroq har ikkala tilda ham insonga taalluqli bo'lgan universal tushunchalar va emotsional holatlar mavjud. Frazeologiya — mana shu ikki xil madaniyat va dunyoqarash egalarining lisoniy olamini taqqoslash uchun eng qulay maydondir. Inson tana a'zolari nomlarini anglatuvchi leksik birliklar somatizmlar (yunoncha "soma" — tana),

ushbu so'zlar ishtirokida hosil bo'lgan turg'un birikmalar esa somatik frazeologizmlar deyiladi. Inson anatomiyasi va biologik tuzilishi irqi hamda millatidan qat'i nazar bir xil. Shu sababli o'zbek va ingliz tillarida universal (izomorf) somatik iboralar juda ko'p uchraydi. Masalan, ikkala xalq ham g'azablanishni ko'zning holati yoki qon bosimi bilan, quvonchni esa bosh va ko'krak holati bilan bog'laydi.

Bosh (Head). Ikkala tilda ham bosh aql va o'zini tuta bilish ma'nosini beradi. O'zbekcha "Qo'li ochiq" va inglizcha "Open-handed" iboralari aynan "saxiy, odamlarga yordam beradigan kishi" degan ma'noni anglatadi.

Yurak (Heart). His-tuyg'ular va bag'ritoshlikni ifodalash ma'nosida qo'llanadi. O'zbek tilidagi "Yuragi tosh" va inglizcha "Heart of stone" iboralari qattiqqo'l, rahmsiz va ba'zi vaziyatlarda yaqinlarini ham ayamaydigan insonlarga nisbatan bir xil ishlatiladi.

Har bir xalqning tarixi va turmush tarzi har xil bo'lgani uchun, bir xil ma'noni ifodalashda har xil tana a'zolaridan foydalanilishi mumkin: Tana a'zolarining almashtirilishi:

Inglizlar kimgadir hazillashib, uni aldayotganda oyoq tana a'zosi bilan qo'llanilgan iboradan foydalanadi (Pull someone's leg – so'zma-so'z: oyog'idan tortmoq). O'zbek tilida esa bu ma'no bosh a'zosi orqali beriladi (Boshini aylantirmoq).

Qimmatlikni ifodalashdagi farq:

O'zbek tilida biror narsaning o'ta qimmatligini aytganda "Otning kallasidek" deyilsa, inglizlarda bu tushuncha inson tana a'zolari bilan o'lchanadi: *Cost an arm and a leg* – so'zma-so'z: qo'l va oyoq narxida turmoq kabi ma'nolarda keladi.

O'zbek va ingliz tillaridagi tana a'zolari nomlari (somatizmlar) ishtirok etgan iboralar qiyoslash jarayonida bir-biriga o'xshashligi va shu bilan birga farqli tomonlarini ta'kidlash kerak. Tahlillar natijasida quyidagi xulosalarga kelishimiz mumkin:

Har bir millatlar o'rtasida umuminsoniy o'xshashliklar, albatta, bo'ladi. O'zbek va ingliz xalqlari ham bundan mustasno emas, shuning uchun ularning biologik tuzilishi va ba'zi hayotiy qarashlari mushtarakligi uchun ko'plab somatik iboralar ma'no jihatdan mos keladi. Masalan, bosh — aql-idrok, yurak — his-tuyg'u, qo'l esa saxiylik va mehnat timsoli sifatida ikkala tilda ham bir xil qo'llaniladi, buning misollarini yuqorida ko'rib chiqdik. (yuragi tosh / heart of stone). Milliy va madaniyatga xos farqlar bu millatlarni bir-biridan farqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Har bir xalqning o'ziga xos tarixi va turmush tarsi, geografik joylashuvi bo'lgani sababli, bir xil fikrni ifodalashda har xil tana

a'zolaridan foydalaniladi. Masalan, inglizlar hazillashib aldashni oyoq bilan bog'lasa (pull someone's leg), o'zbeklar bu ma'noda bosh a'zosini ishlatadi (boshini aylantirmoq).

Xulosa qilib aytganda, somatik frazeologizmlarni o'rganish ikki til so'zlovchilarining tumush-tarzidagi va madaniyatidagi insonlarning dunyoqarashini tushunishga, xorijiy tillarni osonroq o'zlashtirishga hamda tarjima jarayonidagi xatolarning oldini olishga yordam beradi..

adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
- 2.Mamatov A. O'zbek tili frazeologiyasining shakllanishi va semantik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1999.
- 3.Fernando C. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996. (Idiomalar va ularning semantikasi bo'yicha mashhur xalqaro tadqiqot)
- 4.Kövecses Z. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. – Cambridge: Cambridge University Press, 2000. (Tana a'zolari va iboralardagi konseptual metaforalar bo'yicha dunyodagi eng yetakchi olimlardan biri)
- 5.Moon R. Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. – Oxford: Clarendon Press, 1998. (Ingliz tili frazeologik birliklari va turg'un iboralari tahlili)
- 6.Seidl J., McMordie W. English Idioms and How to Use Them. – Oxford: Oxford University Press, 1988. (Ingliz tili iboralari va ularning qo'llanilishi bo'yicha klassik qo'llanma)
- 7.Gibbs R. W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language, and Understanding. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994. (Tildagi ko'chma ma'nolar va somatik obrazlar psixolingvistika nuqtai nazaridan)
- 8.Kunin A.V. Kurs frazeologii sovremennogo angliyskogo yazyka. – Moskva: Vysshaya shkola, 1996.